

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI O‘SIMLIKLAR KARANTINI VA HIMOYASI
AGENTLIGINI TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA**

O‘simliklarni zararli organizmlardan ishonchli himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi “Respublikada o‘simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6262-son **Farmoni** ijrosini ta‘minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

2021 — 2024-yillarda o‘simliklar karantini va himoyasi sohasini rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining tashkiliy tuzilmasi **2-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi markaziy apparatining tuzilmasi **3-ilovaga** muvofiq;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining tuzilmasi **4-ilovaga** muvofiq;

Viloyatlar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi **4a-ilovaga** muvofiq;

Toshkent shahar O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasining tuzilmasi **4b-ilovaga** muvofiq;

O‘simliklar karantini va himoyasi tuman (shahar) bo‘limlarining namunaviy tuzilmasi **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘simliklar karantini davlat inspeksiyasining huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari, shu jumladan xalqaro bitimlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

3. Agentlikning o‘z vakolati doirasida qabul qilgan qarorlari vazirliklar, idoralar, joylardagi davlat hokimiyati organlari, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolar uchun majburiydir.

4. Belgilab qo‘yilsinki Agentlik bosh direktori O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

5. Agentlikka quyidagi vazifalar yuklatilsin:

o‘simliklar karantini, himoyasi va agrokimyohimoyasi sohasida yagona davlat siyosati va nazoratini amalga oshirish;

tuproq agrokimyoviy tahlillarini o‘tkazish va qishloq xo‘jaligiga yetkazib beriladigan barcha turdagi mineral va mikrobiologik o‘g‘itlar sifatini nazorat qilish, tuproq va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tarkibidagi pestitsid, nitrat va og‘ir metall tuzlari qoldiqlarini dala sharoitida radiologik-toksikologik tahlillardan o‘tkazish;

o‘simliklar karantini va himoyasida prognoz tizimini takomillashtirish, zararli organizmlarga qarshi kurashning uyg‘unlashgan samarali usullarini belgilash hamda ijrosini nazorat qilish, monitoring olib borish, iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan zararli organizmlarning respublika hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish hamda yo‘q qilish;

O‘simliklar klinikalari va biolaboratoriyalar tizimini rivojlantirish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirish;

o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari hamda mineral va mikrobiologik o‘g‘itlarning biologik samaradorligi bo‘yicha sinovlarni tashkil qilish va ro‘yxatdan o‘tkazish, qishloq xo‘jaligida kimyolashtirish va biologik vositalardan foydalanish sohasida normativ, reglament va standartlar ishlab chiqish hamda kimyolashtirish va biologik vositalar realizatsiyasi bilan shug‘ullanuvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

fitosanitar xavfsizlikni ta'minlashda ilmiy, uslubiy va ta'lim salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy innovatsion yechimlar, rejalashtirish va boshqarish usullarini joriy etish, ilg'or texnologiyalar hamda ish usullarini joriy etishda xalqaro hamkorlikni kengaytirish, sohada kadrlarni tizimli qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish.

6. Agentlik, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi hamda "O'zagrokimyohimoya" AJ va hududiy "Agrokimyohimoya" AJlarni tugatish bo'yicha Respublika komissiyasining quyidagi takliflariga rozilik berilsin:

a) tugatilayotgan "O'zagrokimyohimoya" AJning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi:

chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmatini "O'zagrokimyohimoya" AJning ustav kapitalidagi davlat ulushini kamaytirish hisobiga Agentlikka o'tkazish;

tut parvonasiga qarshi kurash bo'yicha davlat buyurtmasini berish vazifasini Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasiga yuklash;

b) O'simliklar karantini davlat inspeksiyasining O'simliklar karantini tizimini rivojlantirish jamg'armasi negizida Agentlikning O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi (keyingi o'rinlarda — Jamg'arma)ni qayta tashkil etish;

v) Agentlik tizimida:

Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi tizimidagi O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot instituti va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'simliklar karantini davlat inspeksiyasi tizimidagi O'simliklar karantini ilmiy-tadqiqot markazi negizida O'simliklar karantini va himoyasi agentligining O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o'rinlarda — Ilmiy-tadqiqot instituti) va uning mintaqaviy filiallari;

Ilmiy-tadqiqot institutining Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Samarqand, Farg'ona, Xorazm va Surxondaryo viloyatlaridagi filiallari;

"Agrokimyos stansiyasi" MChJ va uning hududiy bo'linmalari negizida Respublika agrokimyoviy tahlil markazi (keyingi o'rinlarda — Markaz) va uning hududiy bo'linmalari;

"Respublika o'quv ishlab chiqarish biolaboratoriyasi" MChJ va "Respublika "Biosifat" markaziy laboratoriyasi" MChJ negizida "Biosifat" respublika markazini tashkil etish;

Bunda, "Agrokimyos stansiyasi" MChJ va uning hududiy bo'linmalarining, "Respublika "Biosifat" markaziy laboratoriyasi" MChJ va "Respublika o'quv-ishlab chiqarish biolaboratoriyasi" MChJning ulushi to'liq Agentlikka o'tkaziladi;

g) "Agrokimyos stansiyasi" MChJ hududiy filiallarining laboratoriyalarini modernizatsiya qilish maqsadida sotib olingan zamonaviy laboratoriya asbob-uskunalarini hududiy "Agrokimyohimoya" AJlarning ustav kapitalidagi davlat ulushini kamaytirish hisobiga Respublika agrokimyoviy tahlil markazi va uning hududiy bo'linmalari balansiga berish.

7. Belgilansinki:

2021-yil 1-avgustdan boshlab Ilmiy-tadqiqot instituti va uning mintaqaviy filiallari xodimlari mehnatiga haq to'lash, bino va inshootlarini saqlash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish, shuningdek, joriy xarajatlarini qoplash Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

Ilmiy-tadqiqot instituti va uning mintaqaviy filiallariga ajratilgan xonalarni zarur tashqi muhandislik kommunikatsiyalari hamda infratuzilmasiga ulash, mukammal ta'mirlash va rekonstruksiya qilish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, laboratoriya uskunalarini bilan jihozlash ishlari Jamg'arma hamda xalqaro grant mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi;

Ilmiy-tadqiqot instituti va uning mintaqaviy filiallari xodimlariga Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi;

Davlat budjeti mablag'lari hisobidan Ilmiy-tadqiqot instituti va uning mintaqaviy filiallarini saqlash xarajatlari 2021-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchi sifatida Agentlikka ajratiladigan mablag'lar doirasida, 2022-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

8. Belgilab qo'yilsinki:

Ilmiy-tadqiqot instituti, Markaz va “Biosifat” respublika markazi davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxslar hisoblanadi;

Oldingi tahrirga qarang.

Ilmiy-tadqiqot instituti va uning mintaqaviy filiallari, Markaz va uning hududiy bo‘linmalari, “Biosifat” respublika markazi, Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmatlari Davlat budjetidan, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan o‘tkaziladigan tanlovlar natijalari asosida ajratiladigan grantlar, ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun shartnomalardan tushum, xalqaro moliya institutlari grantlari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan moliyalashtiriladi;

(8-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-sonli qarori tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 30.12.2021-y., 07/21/73/1227-son)

mazkur qarorning 8-bandiga muvofiq tashkil etilgan muassasalar huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha ushbu muassasalar tuzilishi uchun asos qilib olingan tashkilotlarning huquqiy vorisi hisoblanadi.

9. Quyidagilar:

a) Agentlik faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib belgilansin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari;

Jamg‘arma mablag‘lari;

xorijiy (xalqaro) moliya institutlari va boshqa xorijiy donorlarning texnik ko‘mak vositalari va grantlari;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar;

b) Jamg‘arma mablag‘larini shakllantirishning asosiy manbalari etib belgilansin:

import va tranzit karantin ruxsatnomalari, xalqaro, ichki va reeksport fitosanitariya sertifikatlari, transport birligini ochish va karantin ko‘rigi dalolatnomasi rasmiylashtirilishidan olinadigan to‘lovlar;

o‘simliklarni himoya qilishda qo‘llaniladigan kimyoviy vositalar, mineral va organik o‘g‘itlarni saqlash, realizatsiya qilishni litsenziyalashdan olinadigan to‘lovlar;

ko‘rsatilgan laboratoriya tahlillari xizmati uchun olinadigan to‘lovlar;

zararsizlantirish (fumigatsiya) ishlari o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun olinadigan to‘lovlar;

biolaboratoriyalar faoliyati uchun beriladigan texnik ruxsatnoma va biomahsulot sifati bo‘yicha sertifikatlar uchun olinadigan to‘lovlar;

kimyoviy va biologik himoya vositalarining biologik samaradorligi bo‘yicha o‘tkaziladigan sinovlar uchun olinadigan to‘lovlar;

ma‘muriy huquqbuzarlik uchun qonunchilikka muvofiq undiriladigan jarimalar;

qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Belgilab qo‘yilsinki, Jamg‘arma mablag‘lari Agentlikka yuklangan vazifalar va funksiyalarni hal etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek, Agentlik xodimlarini moddiy rag‘batlantirish uchun yo‘naltiriladi.

10. Agentlik va uning tizimida yangidan tashkil etilayotgan tashkilotlarning shtat birliklari hamda boshqa xarajatlarini qoplashga qo‘shimcha ravishda talab etiladigan mablag‘lar Davlat budjetining 2021-yil parametrlarida zararkunandalarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolishni ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlar uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hisobidan qoplansin.

11. O‘simliklarni himoya qilishning yaxlit tizimi yaratilayotganligi va ushbu tizimning faoliyati birinchi navbatda o‘simliklar zararkunandalari va kasalliklari tarqalishining oldini olishga qaratilganligini hisobga olib, zararkunandalarga qarshi kurashish hamda favqulodda vaziyatlarda hosilni saqlab qolishni ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun 2022-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida Agentlik uchun 50 mlrd so‘m mablag‘ ko‘zda tutilsin.

12. 2021-yilning 1-avgustidan boshlab Agentlik va uning hududiy boshqarmalari tomonidan ko‘rsatiladigan davlat xizmatlaridan Jamg‘armaga kelib tushadigan davlat boji va yig‘imi

ko'rinishidagi tushumlarning 25 foizidan ortiq bo'lmagan miqdori Agentlik xodimlarini moddiy rag'batlantirish uchun yo'naltirilsin.

13. Agentlik bosh direktoriga quyidagi huquqlar berilsin:

boshqaruv xodimlarining belgilangan umumiy soni doirasida Agentlikning markaziy apparati va uning quyi tashkilotlari tuzilmasiga o'zgartirishlar kiritish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari, Agentlikka idoraviy mansub tashkilotlar nizomlari va tuzilmalarini, shuningdek, ular boshqaruv xodimlarining belgilangan sonini tasdiqlash;

ishlab chiqarish zarurati va ish yuklamasidan kelib chiqib Jamg'arma mablag'lari hisobidan qo'shimcha shtat birliklarini joriy etish;

bo'ysunuvdagi idoralarning nizomini tasdiqlash;

malakali mahalliy va xorijiy mutaxassislarni ishga yollash.

14. Agentlikka, unga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun agrodronlarni Mudofaa sanoati bo'yicha davlat qo'mitasi orqali olib kirish va Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi tomonidan ulardan foydalanish huquqi berilsin.

Agentlik tomonidan zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi uch kun muddatda agrodronlarni ishga tushirish uchun ruxsatnoma bersin.

15. Agentlik:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning markaziy va yirik shaharlarida hamda Toshkent shahrining barcha tumanlarida manzarali va mevali daraxtlar, butalar hamda gullarni zararli organizmlardan himoya qilishda alohida nazoratni amalga oshirsin;

bir oy muddatda Respublika agrokimyoviy tahlil markazi, Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmatlari, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti va Biosifat respublika markazi tuzilmalarini tasdiqlash to'g'risidagi Hukumat qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritin.

16. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bir oy muddatda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning markaziy va yirik shaharlarida hamda Toshkent shahrida davlat unitar korxonasi shaklida Manzarali va mevali daraxtlar, butalar va gullarni zararli organizmlardan himoya qilish markazini quyidagi vazifalar yuklatilgan holda tashkil etish choralarini ko'rsin;

manzarali va mevali daraxtlar, butalar hamda gullarni zararli organizmlardan himoya qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

manzarali va mevali daraxtlar, butalar hamda gullarni zararli organizmlardan himoya qilish bo'yicha preparatlar hamda mineral o'g'itlar zaxiralarini shakllantirsin.

17. Quyidagilar:

Agentlikning markaziy apparati Toshkent shahri, Mirobod tumani, Nukus ko'chasi, 77a-uy; Ilmiy-tadqiqot instituti va Biosifat respublika markazi Toshkent viloyati, Qibray tumani, Bobur ko'chasi, 4-uy;

Markaz Toshkent viloyati, Qibray tumani, Bobur ko'chasi, 8-uy manzillari bo'yicha joylashtirilsin.

18. Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Agentlik zimmasiga yuklatilgan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalarni nazarda tutuvchi qonun loyihasini belgilangan tartibda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritin.

19. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil etishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib O'simliklar karantini va himoyasi agentligi bosh direktori, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.

Qaror ijrosini muhokama qilib borish, ijro uchun mas'ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Bosh vazir o'rinbosari Sh.M. G'aniyev zimmasiga yuklansin.

Amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har chorak yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2021-yil 15-iyul,
PQ-5185-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga
1-ILOVA

2021 — 2024-yillarda o'simliklar karantini va himoyasi sohasini rivojlantirish bo'yicha

“YO'L XARITASI”

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
I. Davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish				
1.	“O'simliklar karantini to'g'risida”gi va “Qishloq xo'jalik o'simliklarini zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish to'g'risida”gi qonunlar me'yorlarini qayta ko'rib chiqib, Vazirlar Mahkamasiga tegishli qonun loyihalarini kiritish.	Qonun loyihalari	2022-yil yanvar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
2.	O'simliklar klinikalariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish hamda ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar monitoringini yuritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil I chorak	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
3.	Mineral o'g'it va kimyoviy vositalar importi, ulgurji va chakana savdo faoliyatini litsenziyalanadigan faoliyat turlari ro'yxatiga belgilangan tartibda kiritish.	Qonun loyihasi	2021-yil dekabr	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
4.	Mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilishda qo'llaniladigan kimyoviy vositalar importi, ulgurji va chakana savdo faoliyatini litsenziyalash tartibini ishlab chiqish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil yanvar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
5.	O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi to'g'risidagi nizomni; Agentlikning O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil yanvar	Vazirlar Mahkamasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
II. Xorijiy tajriba asosida o'simliklar karantini va himoyasi sohasini rivojlantirish				
6.	O'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha xalqaro konvensiya kotibiyati bilan hamkorlikni rivojlantirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil oktyabr	O'simliklar karantini va himoyasi

				agentligi, Tashqi ishlar vazirligi
7.	O'zbekiston Respublikasi manfaatlaridan kelib chiqib, xorijiy davlatlarning o'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha milliy tashkilotlari bilan ikki tomonlama hamkorlik kelishuvlari tuzish.	Xalqaro hujjatlar	2021 — 2024-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Tashqi ishlar vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
8.	O'zbekiston Respublikasiga chegaradosh davlatlarning o'simliklar karantini va himoyasi bo'yicha milliy tashkilotlari bilan birgalikda zararli organizmlarning respublika hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olishni tizimli tashkil etish yuzasidan qo'shma chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish.	Qo'shma chora-tadbirlar rejasini	2021 — 2024-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Tashqi ishlar vazirligi
9.	O'simliklarni himoya qilishda kimyoviy vositalardan xavfsiz foydalanish tizimini Pestitsidlarni tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha xalqaro axloq kodeksiga muvofiqlashtirish choralarini ko'rish.	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-2022-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi
10.	Sohadagi xalqaro ilg'or tajribalar, ilm-fan yutuqlari, innovatsion yangi texnologiyalarni qo'llash bo'yicha agronom-inspektorlar malakasini muntazam oshirib borish, rivojlangan xorijiy davlatlarning shu yo'nalishdagi tegishli muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-yil sentyabr	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
11.	Ilmiy-tadqiqot instituti va uning mintaqaviy filiallariga malakali xorijiy va mahalliy olimlarni jalb qilgan holda fermer va dehqon xo'jaliklari vakillarini o'qitish choralarini ko'rish.	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-yil sentyabr-oktyabr	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
12.	O'simliklar karantini va himoyasi hamda agrokimyoviy tahlil yo'nalishidagi ilg'or xorijiy tajribalarni tatbiq etish uchun Agentlikka xorijiy ekspertlarni jalb qilish.	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-yil oktyabr	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
III. O'simliklar karantini va himoyasi sohasida samaradorlikni oshirishga qaratilgan tashkiliy ishlar				
13.	Tashkiliy yig'ilish o'tkazilib, mas'ul vazirlik, idora va hokimliklarning vazifalari aniq belgilash hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tomonidan hududlar kesimida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlanishini ta'minlash. Agentlik:	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-yil avgust	Vazirlar Mahkamasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi

	<p>yerdan foydalanuvchilar va aholi tomonidan o‘simliklar himoyasi vositalaridan belgilangan me‘yorlar asosida qo‘llanilishini nazorat qilsin;</p> <p>fitosanitar, sanitar xavfsizlik talablariga va reglamentlarga rioya qilmagan, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida o‘simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari, defoliantlar hamda o‘simliklar o‘shini boshqaruvchi vositalar ro‘yxatiga kiritilmagan vositalar (kimyoviy, biologik, mineral o‘g‘itlar, stimulyatorlar va boshqalar)ni sotgan, qo‘llagan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan tegishli choralar qo‘llash to‘g‘risida taklif kiritin;</p> <p>karantin ruxsatnomasi va karantin ko‘rigi dalolatnomasi mavjud bo‘lmagan karantin ostidagi import mahsulotlari respublika hududida aniqlangan taqdirda, ushbu mahsulotlarni import qilgan, saqlagan, realizatsiya qilgan va tashigan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan ma‘muriy javobgarlik choralarini qo‘llasin;</p> <p>o‘simliklar klinikalariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqsin hamda ular tomonidan amalga oshirilgan ishlar monitoringini yuritsin.</p>			
14.	<p>“Tomorqa xizmati” MChJlar rahbar va mutaxassislarini o‘simliklar himoyasi sohasidagi bilimlarini oshirish choralarini ko‘rish va o‘quv kurslarini o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlarni Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplash.</p>	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-2022-yillar	O‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi
15.	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4803-son qaroriga muvofiq, o‘simliklar karantini va himoyasini kuchaytirish hamda tabiiy resurslarni boshqarishni yaxshilash doirasida agrokimyoviy tahlil</p>	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-yil oktyabr	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi

	<p>laboratoriyalari uchun ajratilgan 5 800 ming AQSh dollari miqdoridagi mablagʻlarni oʻzlashtirish choralarini koʻrish.</p> <p>Bunda, ajratiladigan mablagʻlardan 4 730 ming AQSh dollari Agentlik va uning tizimidagi laboratoriyalarni jihozlashga, 540 ming AQSh dollari fumigatsiya jihozlari xarid qilishga va 378 ming AQSh dollari fumigatsiya laboratoriyasini tashkil etishga, shuningdek, 152 ming AQSh dollari mutaxassislar malakasini oshirishga yoʻnaltiriladi.</p>			
16.	Agentlikning "E-Fitouz" avtomatlashtirilgan axborot tizimini Davlat soliq qoʻmitasi huzuridagi Kadastr agentligining elektron xaritalar tizimiga integratsiya qilish.	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-yil oktyabr	Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi, Kadastr agentligi
17.	Ilmiy-tadqiqot instituti va uning mintaqaviy filiallarining moddiy-texnika bazasini yaxshilash choralarini koʻrish.	Tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar	2021-yil dekabr	Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi
18.	Oʻsimliklar karantini chegara maskanlarini respublika hududiga olib kirilayotgan karantin ostidagi mahsulotlarning turi boʻyicha ixtisoslashtirish yuzasidan tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil 1-sentabr	Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi, Davlat bojxona qoʻmitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar
19.	Eksportbop mahsulotlar yetishtiriladigan bogʻ, tokzorlar va dala maydonlari hamda qadoqlash sexlarining doimiy roʻyxatini shakllantirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	Har yili I chorakda	Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xoʻjaligi vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi
20.	Agrokimyoviy tahlil laboratoriyasi, biolaboratoriya, oʻsimliklar klinikalari va tuproq klinikalari faoliyatini amalga oshirish uchun ularni zarur bino-inshootlar bilan taʼminlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2022-yil yanvar	Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Kadastr agentligi
21.	Agentlik taklifi asosida Oʻsimliklarni karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti va Toshkent davlat agrar universitetining karantin laboratoriyalarini zarur jihozlar bilan taʼminlash uchun 50 mln AQSh dollari miqdorida grant mablagʻlarini jalb qilish choralarini koʻrish hamda natijasi boʻyicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022-yillar	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Oʻsimliklar karantini va himoyasi agentligi, manfaatdor vazirlik va tashkilotlar

22.	Xitoy Xalq Respublikasining 2,9 mln. AQSh dollariga teng granti hisobiga “O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Markaziy fitosanitariya laboratoriyasini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish doirasida karantin laboratoriyasi asbob-uskunalarini Xitoy tomonidan O‘zbekistonga olib kelish choralari ko‘rish.	Bitim, amaliy chora-tadbirlar	2021-yil IV chorak	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi
23.	Fitosanitariya nazorati sohasidagi ilmiy, ilmiy-texnik faoliyat natijalarini amalga oshirishni davlat tomonidan grant ajratish orqali qo‘llab-quvvatlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-yil IV chorak	Innovatsion rivojlanish vazirligi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi
24.	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarning yer maydonlarida xavfli zararkunanda va kasallik o‘choqlarini o‘z vaqtida aniqlash va ularga qarshi samarali kurashish choralari belgilash uchun yiliga 30 mingdan kam bo‘lmagan feromon tutqichlarni xarid qilish, ularni bepul o‘rnatish hamda monitoringini olib borish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-yil IV chorak	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
25.	Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti hajmini ko‘paytirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi asosiy zararkunanda hasharotlarga qarshi kompleks kurashish bo‘yicha “Dolzarb o‘n besh kunliklar” va issiqxonalarda zararli organizmlar tarqalishining oldini olish bo‘yicha kuzgichki va bahorgi agrotexnik tadbirlar o‘tkazishni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-yil IV chorak	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
26.	Ekin maydon tuproq tarkibida zaharli kimyoviy moddalar (pestitsid) tahlili natijasiga ko‘ra eksportbop mahsulotlarni yetishtirishda biologik yoki almashlab ekish usulini qo‘llashni rag‘batlantirish tartibini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2021-yil dekabr	Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
27.	Ekin maydonlarida zaharli kimyoviy moddalardan (pestitsid) foydalanish amaliyotini keskin qisqartirish, zararkunandalarga qarshi kurashishda entomofaglardan foydalanish choralari ko‘rish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

28.	O‘simliklarni kasallik va zararkunandalarga qarshi ta’sirchanligini oshirish imkonini beruvchi seleksiya tajribalarini amalga oshirish loyihalari uchun davlat grantlari ajratilishini ta’minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	Innovatsion rivojlanish vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
29.	Inson salomatligiga salbiy ta’sir etuvchi o‘simliklarni himoya qilishda foydalaniladigan kimyoviy vositalarni xalqaro talablarga muvofiq bosqichma-bosqich ularni o‘rnini bosuvchi vositalarga almashtirish choralari ko‘rish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022 — 2024-yillar	Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi
30.	Qishloq xo‘jaligi ekinlarining zararli organizmlarini rivojlanishi va tarqalishi hamda agrometeorologik prognoz ma’lumotlarni fermer, dehqon xo‘jaliklariga yetkazish tizimini keng ko‘lamda joriy etish maqsadida agrometeorostansiyalarni o‘rnatishga qaratilgan grant mablag‘larini jalb qilish choralari ko‘rish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022-yillar	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Gidrometeorologiya xizmat markazi
31.	“Dalagacha tushadigan xizmatlar tizimi”ni joriy etish maqsadida agrokimyo laboratoriya, biolaboratoriya, o‘simlik klinikalari va tuproq klinikalarini tashkil etish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, “Agrobank” ATB, Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, Savdo-sanoat palatasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimliklari
32.	O‘simlik zararkunandalari, kasalliklari va begona o‘tlarga qarshi samarali kurash tizimining ilmiy asoslangan uslubiyotini ishlab chiqish.	Qo‘llanma	2021-2022-yillar	O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi
33.	Respublikaning fitosanitar tozaligini ta’minlash maqsadida o‘simliklar karantini va himoyasi inspektorlarining import, eksport, reeksport va reimport hamda istisno tariqasida tranzit jarayonlaridagi ishtirokini ta’minlash	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil yanvar	Davlat bojxona qo‘mitasi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, Adliya vazirligi

	uchun O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi va boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.			
IV. Zararli chigirtkaga qarshi kurash usullarini takomillashtirish				
34.	Zararli chigirtka o'choqlarini aniqlash, ularga qarshi samarali kurash tizimining ilmiy asoslangan mexanizmlarni qo'llash uslubiyotini ishlab chiqish.	Qo'llanma	2022-yil 1-iyul	Fanlar Akademiyasi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi
35.	Xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasini yaqindan o'rganish natijasida chigirtkaga qarshi kurash usulbarini takomillashtirish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2022-yil I chorak	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Fanlar Akademiyasi
36.	Chegaradosh qo'shni davlatlar bilan zararli chigirtka tarqalishiga oid ma'lumotlarni almashish tizimini joriy qilish va ularning hujumini oldindan bartaraf qilish va ularga qarshi kurash yuzasidan hamkorlik rejalarini tuzish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi
V. O'simliklar karantini va himoyasi agentligining ilm-fan, ta'lim va axborot xizmatlari tizimini rivojlantirish				
37.	Zararli organizmlarga qarshi kurashish vositalari savdosining hududlar kesimidagi tendensiyasini tahlilini yuritish va fitosanitar nazorat bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2022-yil 1-dekabr	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Davlat soliq qo'mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
38.	Issiqxonalarda yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi ekinlarini zararli organizmlardan himoya qilishning ilmiy asoslangan usullarini joriy etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi
39.	O'simliklardagi zararli organizmlarni aniqlash va ularga qarshi kurash choralarini belgilashning imkonini beruvchi "Dala himoyasi va interaktiv xizmat ko'rsatish" elektron mobil dasturini yaratish va ommaga yetkazish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish agentligi
VI. O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash				
40.	Toshkent davlat agrar universiteti va uning filiallaridagi o'simliklarni himoya qilish hamda karantin fakultetlarini, shuningdek, kafedralarning moddiy-	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022-yillar	Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'simliklar karantini va himoyasi


	texnika bazasini mustahkamlash, kadrlar tayyorlash tizimini kuchaytirish, ilmiy salohiyatni oshirish va zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari bilan ta'minlash.			agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
41.	O'simliklar karantini va himoyasi agentligining hududlardagi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida Toshkent davlat agrar universiteti va uning Nukus va Termiz filiallarida hamda Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida o'quv kurslari va seminarlarini tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022-yillar	Toshkent DAU va uning Nukus va Termiz filiallari, Andijon agrotexnologiyalar instituti, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti
42.	2021/2022 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat agrar universitetining Nukus filialida "O'simliklar va qishloq xo'jaligi mahsulotlari karantini" ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022 o'quv yili	Qishloq xo'jaligi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi
43.	O'simliklar karantini va himoyasi xizmati faoliyatini rivojlantirish maqsadida 500 nafarga yaqin xorijiy agronomlarni jalb qilib, qishloq xo'jaligi texnikum va kollejlarda o'rta bo'g'in mutaxassislarni qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish. Xalqaro va xorijiy tashkilotlar bazasida soha mutaxassislari malakasini oshirishni tashkil etish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari, Tashqi ishlar vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
VII. "Biosifat" respublika markazi faoliyatini takomillashtirish				
44.	Biolaboratoriya, biofabrika va biomarkazlarda "Texnik-pasport" hamda har bir ko'paytiriladigan entomofaglarining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha "Sifat sertifikatini" yuritilishini joriy qilish.	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	2022-yil 1-dekabr	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar
45.	Biomahsulotlar yetkazib berilishi bo'yicha hududlarning monitoringini yuritish uchun biolaboratoriyalararo yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021-2022-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, "Biosifat" respublika markazi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi
VIII. O'simliklar karantini va himoyasi agentligining moddiy-texnika bazasini takomillashtirish				
46.	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi va uning hududiy bo'linmalarini O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan transport vositalari, asboblar,	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Mudofaa sanoati

	<p>texnik vositalar va zarur jihozlar bilan belgilangan tartibda ta'minlash, shu jumladan:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Maxsus planshetlar — 760 dona; 2. Cho'ntak mikroskoplari — 830 dona; 3. Hududiy boshqarmalar ma'muriy binolariga, o'simliklar karantini chegara maskanlaridagi inspektorlar faoliyat ko'rsatadigan joylarga videokuzatuv moslamalarini o'rnatish; 4. Elektron axborot tizimi uchun 2 komplekt server xarid qilish; 5. "Damas" rusumli avtomashina — 110 dona; 6. Fumigatsiya guruhlar uchun "Labo" rusumli avtomashina — 15 dona; 7. Maxsus avtomashinalar — 56 dona; 8. Maxsus yuk avtotransport — 1 dona; 			<p>bo'yicha davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>
47.	<p>Grant va O'simliklar karantini va himoyasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan belgilangan tartibda:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Termokamera — 12 dona; 2. Fumigatsiya kameralarida gaz konsentratsiyasini aniqlash uchun gaz analizatorlari — 27 dona; 3. Fumigatsiya obyektlarida germetizatsiyani aniqlash uchun gaz analizatorlari — 27 dona; 4. Fumigatsiya laboratoriyasi — 1 dona; 5. Avtodoxator (fosfin fumiganti uchun) — 28 ta; 6. Maxsus kiyim-bosh; 7. Fumigatsiya guruhlarini turli xil shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash; 8. Fumigantlar; 9. Fitosanitariya sertifikatlari; 10. Monitoring uchun ko'p marta ishlatiladigan zamonaviy feromon tutqichlar — 30 ming dona; 11. Laboratoriya jihozlari (7 ta hududiy boshqarmaga); 12. O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimidagi O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot institutida xalqaro standartlarga mos karantin pitomnigini tashkil qilish va uni kichik 	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	<p>O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari</p>

	laboratoriya va sinov uchastkasi uchun issiqxona bilan ta'minlash, zamonaviy laboratoriya uskunalari bilan jihozlash va pitomnik uchun qishloq xo'jaligi texnikalarini (traktor, yuk mashinasi, tirkamalar, purkagichlar va hokazo) xarid qilish.			
48.	Qoraqalpog'iston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy va Namangan viloyatlari o'simliklar karantini va himoyasi boshqarmalarini laboratoriya binolari va zamonaviy uskunalari bilan ta'minlash. Ta'mirtalab binolarni asoslantirilgan loyiha-smeta hujjatlari asosida joriy ta'mirlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2023-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
49.	O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti va uning laboratoriyasini mukammal ta'mirlash hamda zarur buyumlar, uskuna va jihozlar bilan ta'minlash.	Tashkiliy chora-tadbirlar rejasi	2021 — 2024-yillar	O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligining TASHKILIY TUZILMASI



Aeroportlardagi o‘simliklar karantini chegara maskanlari (12)
 Daryo portidagi o‘simliklar karantini chegara maskani (1)
 Pochtamdagi o‘simliklar karantini chegara maskani (1)


Respublika agrokimyoviy tahlil markazi va uning hududiy bo‘linmalari — 13

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmatlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga 3-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi markaziy apparatining


TUZILMASI



Jami boshqaruv xodimi 116 nafar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga
4-ILOVA

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligining
TUZILMASI**



Umumiy xodimlar soni — 67 nafar, shundan boshqaruv xodimlari soni — 26 nafar
Texnik va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar soni belgilangan me‘yorlarga muvofiq aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga
4a-ILOVA

Viloyatlar o‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalarining

NAMUNAVIY TUZILMASI




Xodimlar soni — 47— 154 nafar, shundan boshqaruv xodimlari soni — 26 nafar.

Umumiy xodimlar soni — 911 nafar, shundan boshqaruv xodimlari soni — 312 nafar.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni belgilangan me'yorlarga muvofiq aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga
4b-ILOVA

**Toshkent shahar O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasining
TUZILMASI**




Xodimlar soni — 124 nafar, shundan boshqaruv xodimlari soni — 20 nafar.

Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar soni belgilangan me'yorlarga muvofiq aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi PQ-5185-son qaroriga
5-ILOVA

O'simliklar karantini va himoyasi tuman (shahar) bo'limlarining NAMUNAVIY TUZILMASI



Xodimlar soni — 5 — 21 nafar.

Umumiy xodimlar soni — 1 600 nafar.

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 16.07.2021-y., 07/21/5185/0681-son, 30.12.2021-y.,
07/21/73/1227-son)*

**ПОСТАНОВЛЕНИЕ
ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**О СОЗДАНИИ АГЕНТСТВА ПО КАРАНТИНУ И ЗАЩИТЕ РАСТЕНИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

В целях совершенствования государственного управления в сфере надежной защиты растений от вредных организмов и обеспечения исполнения [Указа](#) Президента Республики Узбекистан от 15 июля 2021 года № УП-6262 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы карантина и защиты растений в республике»:

1. Утвердить:

«Дорожную карту» по развитию сферы карантина и защиты растений на 2021 — 2024 годы согласно [приложению № 1](#);

Организационную структуру Агентства по карантину и защите растений Республики Узбекистан согласно [приложению № 2](#);

Структуру центрального аппарата Агентства по карантину и защите растений Республики Узбекистан согласно [приложению № 3](#);

Структуру Агентства по карантину и защите растений Республики Каракалпакстан согласно [приложению № 4](#);

Типовую структуру управлений по карантину и защите растений областей согласно [приложению № 4а](#);

Структуру управления по карантину и защите растений города Ташкента согласно [приложению № 4б](#);

Типовую структуру районных (городских) отделов по карантину и защите растений согласно [приложению № 5](#).

2. Установить, что Агентство по карантину и защите растений (далее — Агентство) является правопреемником Государственной инспекции по карантину растений при Кабинете Министров по правам, обязанностям и договорам, включая международные соглашения.

